

O'ZBEKISTONDA NOQONUNIY MIGRATSIYAGA TASHKIL ETGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK

Urozboyev Jamshid Ergash o'g'li

Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi magistranti

Email: jamshidurozboev3@gmail.com

+998997741611

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20376836>

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi inson resurslarining davlatlararo harakatlanishini jadallashtirdi, biroq bu bilan bir qatorda noqonuniy migratsiya kabi transmilliy tahdidning ko'lamini ham kengaytirdi. Noqonuniy migratsiya shunchaki ma'muriy tartib-qoidalarni buzish emas, balki inson huquqlarining poymol etilishi, yashirin iqtisodiyotning oziqlanishi va milliy xavfsizlik tizimiga nisbatan jiddiy kriminogen xavf hisoblanadi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) va BMT ma'lumotlariga ko'ra¹, migratsiya oqimlarining nazoratdan chiqishi uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi va ekstremistik guruhlarining infiltratsiyasi uchun qulay zamin yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu masala nafaqat tashqi migratsiya oqimlarini tartibga solish, balki tranzit yo'laklaridagi xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham o'ta dolzarbdir. Amaldagi qonunchilikda noqonuniy migratsiyaga ko'maklashish bo'yicha belgilangan normalar bugungi kunning murakkab kriminologik manzarasiga, xususan, axborot texnologiyalari orqali xizmat ko'rsatuvchi va moddiy manfaatdor bo'lgan tashuvchilar faoliyatiga to'liq javob bermaydi. Shu sababli, noqonuniy migratsiya zanjiridagi barcha subyektlarning javobgarligini kriminallashtirishning huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati tug' ilmoqda.

Asosiy qism. O'zbekistonda noqonuniy migratsiyani kriminallashtirishning huquqiy asoslari va uning kriminologik jihatlarini takomillashtirish masalasi bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya sharoitida inson resurslarining qonunga xilof harakatlanishi shunchaki tartibni buzish emas, balki yashirin iqtisodiyotning eng daromadli va tizimli tarmoqlaridan biriga aylandi². Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasi chegarani buzish hamda kirish-chiqish tartibiga ko'maklashishni qamrab olgan bo'lsa-da³, zamonaviy migratsiya biznesining murakkab logistik zanjiri uchun jazo mexanizmlari yetarlicha differensiyalashmagan. Ayniqsa, noqonuniy migratsiyaga ko'maklashuvchi, migrantlarni tashish va ularga pullik asosda yo'nalishlar hamda manzillar haqida

¹ <https://worldmigrationreport.iom.int/>

² Andrea Di Nicola – *A Business Model of Migrant Smuggling*

³ <https://lex.uz/docs/-111453> Lex.uz sayti. Jinoyat kodeksi 223-moddasi



axborot berish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning qilmishini huquqiy baholashda bo'shliqlar mavjud.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, noqonuniy migratsiyaning ijtimoiy xavfliligi uning transmilliy uyushgan jinoyatchilik bilan simbiotik aloqasidadir⁴. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi hamda mazkur sohani ancha yillardan beri tadqiq qilib keladigan olimlar Paolo Kampana, Khalid Koser, David Kyle, Peter Andres, Sheldon X. Zang kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida migrantlarni noqonuniy olib o'tishni yirik moliyaviy oqimlarni nazorat qiluvchi jinoiy bozor sifatida ta'riflashgan⁵. O'zbekiston qonunchiligida ko'maklashish tushunchasi umumiy xarakterga ega bo'lib, u tashuvchilar, boshpana beruvchilar va yo'l ko'rsatuvchi vositachilar va o'ratakashlarning individual harakatlarini jinoiy-huquqiy jihatdan to'liq qamrab olmaydi. Noqonuniy migratsiya mavzusida ilmiy tadqiqotchilardan Juliet Stumpf o'zining *The Crimmigration Crisis* kitobida noqonuniy migratsiyaga ko'maklashishni jinoyat qonuni bilan taqiqlashga oid xulosalarini taqdim etadi. U tomonidan ilgari surilgan migratsiyaning kriminallasuvi nazariyasidan kelib chiqib yondashsak, noqonuniy migratsiya zanjiridagi har bir subyektning moddiy manfaatdorligi uning qilmishini og'ir jinoiy javobgarlik darajasiga ko'tarishi lozim degan fikrni ilgari surish mumkin bo'ladi. Tadqiqot doirasida noqonuniy migratsiyaga ko'maklashuvchi subyektlar guruhini kriminallashtirish zarurati asoslab beriladi. Birinchi navbatda, noqonuniy tashuvchilar, ya'ni migrantlarni chegaradan yashirincha o'tkazish yoki mamlakat ichida tashish bilan shug'ullanuvchi logistik operatorlar javobgarligi masalasidir. Sheldon Zhang ta'kidlaganidek, bunday holatlarda transport vositalari jinoiy qurol sifatida musodara qilinishi va haydovchilar tashkilotchilar bilan teng darajada javobgar bo'lishi mantiqan to'g'ri hisoblanadi⁶. Ikkinchi muhim bo'g'in - bu axborot va marshrut brokerlaridir. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali noqonuniy yo'llar, nazorat punktlarini chetlab o'tish usullari haqida pullik xizmat ko'rsatuvchilar bugungi kunda migratsiya oqimlarining asosiy yo'naltiruvchisiga aylangan. Gabriella Sanchez tadqiqotlari aynan axborot ko'magi noqonuniy oqimlarning hayotiyiligini ta'minlashini isbotlagan⁷.

Xalqaro tajriba, xususan Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi davlatlari qonunchiligi tahlili⁸ shuni ko'rsatadiki, noqonuniy migratsiyaga har qanday shaklda, ya'ni tashish, yashirish yoki reklama qilish orqali moddiy

⁴ Khalid Koser – *The Smuggling of Migrants*. 2021.

⁵ Paolo Campana – *The Market for Human Smuggling*. David Kyle – *Global Human Smuggling*. Peter Andreas – *Smuggler Nation*. Sheldon X. Zhang – *Chinese Human Smuggling Organizations*

⁶ Sheldon X. Zhang – *Chinese Human Smuggling Organizations*

⁷ Gabriella Sanchez – *Human Smuggling and Border Crossings*. Axborot beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi "broker"larni kriminallashtirishni o'rgangan.

⁸ <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/8/1324> mazkur saytda keltirilgan moddada nafaqat migrantni chegaradan olib o'tishni, balki uni mamlakat ichida **tashish, yashirish, boshpana berish** va hatto bunday harakatlarga **undaydigan yoki dalolat qiluvchi** har qanday xatti-harakatni taqiqlaydigan norma ko'rsatilgan.

<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32002L0090> mazkur saytdagi hujjat YIga a'zo davlatlardan "tranzit yoki yashash maqsadida ruxsatnomasiz kirishga ko'maklashgan" har qanday shaxsga nisbatan jinoiy sanksiyalar qo'llashni talab qiladi



manfaat evaziga ko'maklashish **og'ir jinoyatlar turkumiga kiritilgan**. O'zbekiston uchun BMTning Palermo protokoli talablaridan kelib chiqib, milliy qonunchilikni unifikatsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Shu sababli, Jinoyat kodeksining 223-1-moddasini yangi tahrirda bayon etish, unda transportda tashish hamda yo'nalish va manzillar haqida pullik axborot berish kabi harakatlarni mustaqil dispozitsiya sifatida kiritish taklif etiladi.

Xulosa.

Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish uchun nafaqat chegarani kesib o'tgan migrantga, balki ushbu jarayonni tashkil etgan va unga ko'maklashgan subyektlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni kuchaytirish lozim. Noqonuniy migratsiyani kriminallashtirishning huquqiy asoslari sifatida quyidagi fundamental takliflarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasi dispozitsiyasini kengaytirish va unda "noqonuniy migratsiya maqsadida transport xizmati ko'rsatish, yashirin marshrutlar bo'yicha pullik axborot berish hamda migrantlarni yashirish harakatlari" mustaqil jinoiy qilmish sifatida e'tirof etilishi zarur.

Ikkinchidan, jinoiy javobgarlikni belgilashda "moddiy manfaatdorlik" faktori asosiy kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida kiritilishi shart, zero noqonuniy migratsiya zamonaviy jinoiy biznesning bir turi bo'lib, uning iqtisodiy jozibadorligini faqat qat'iy jinoiy-huquqiy sanksiyalar va mol-mulkni musodara qilish orqali kamaytirish mumkin.

Uchinchidan, xalqaro xavfsizlik standartlari va Palermo protokoli talablariga muvofiq, noqonuniy migratsiyaga ko'maklashganlik uchun jazo choralarini differensiyalash, ya'ni qilmish uyushgan guruh tomonidan yoki hayot uchun xavfli usullar bilan sodir etilganda javobgarlikni keskin kuchaytirish lozim.

Noqonuniy migratsiya zanjiridagi logistik va axborot ko'magi uchun jinoiy javobgarlik belgilash davlatning chegara xavfsizligini mustahkamlab, inson resurslaridan noqonuniy foydalanishga asoslangan yashirin bozorning faoliyatini cheklashga xizmat qiladi.

Manbaalar ro'yxati:

- 1.Lex.uz sayti. Jinoyat kodeksi 223-moddasi. <https://lex.uz/docs/-111453>
- 2.Andrea Di Nicola – A Business Model of Migrant Smuggling
- 3.Khalid Koser – The Smuggling of Migrants. 2021.
- 4.Paolo Campana – The Market for Human Smuggling. David Kyle – Global Human Smuggling. Peter Andreas – Smuggler Nation. Sheldon X. Zhang – Chinese Human Smuggling Organizations
- 5.Sheldon X. Zhang – Chinese Human Smuggling Organizations
- 6.Gabriella Sanchez – Human Smuggling and Border Crossings. Axborot beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi "broker"larni kriminallashtirishni o'rgangan.

7.<https://www.law.cornell.edu/uscode/text/8/1324> mazkur saytda keltirilgan moddada nafaqat migrantni chegaradan olib o'tishni, balki uni mamlakat ichida tashish, yashirish, boshpana berish va hatto bunday harakatlarga undaydigan yoki dalolat qiluvchi har qanday xatti-harakatni taqiqlaydigan norma ko'rsatilgan.

8.<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex%3A32002L0090> mazkur saytdagi hujjat YIga a'zo davlatlardan "tranzit yoki yashash maqsadida ruxsatnemasiz kirishga ko'maklashgan" har qanday shaxsga nisbatan jinoiy sanksiyalar qo'llashni talab qiladi.

9.<https://worldmigrationreport.iom.int/> Mazkur saytda Xalqaro migratsiya tashkiltining hisobotlari keltiriladi.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

